TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 28 - aprel 82-10-138-Q/23 Zangiota tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 14-apreldagi 166-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–49-sonli Farmoni, Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 14-apreldagi 166-10-0-Q/23-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 14-apreldagi 166-10-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. **Mazkur qarorga muvofiq quyidagilar**:

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi **Nizomi;**

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining **yangilangan tarkibi** tasdiqlangani;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari ilovaga muvofiq o‘z kuchini **yo‘qotgan deb hisoblanganligi;**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3837-son qarorining 3-bandi quyidagi mazmundagi

"O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi va uning hududiy bo‘linmalarining faoliyatini tashkil etish tartibi, shuningdek, Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan amalga oshiriladi" mazmundagi xatboshi bilan **to‘ldirilishi belgilanganligi;**

Jamoatchilik kengashi maslahat-kengash organi hisoblanib, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari a’zolari, senatorlar, deputatlar, fan va madaniyat namoyondalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillaridan iborat tarkibda tashkil etilishi;

hududiy bo‘linmalarning tashkiliy-texnik ta’minoti viloyatlar hokimliklari tomonidan amalga oshirilishi;

Jamoatchilik kengashi o‘z hududiy bo‘linmalariga yuklangan vazifa va majburiyatlarning bajarilishini muvofiqlashtirib borishi hamda ularning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, shuningdek, Mudofaa vazirligining fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin va samarali hamkorlik qilishiga ko‘maklashishi;

tuman bo‘limi Jamoatchilik kengashi hamda tuman hokimligi oldida hisobdor bo‘lishi **belgilanganligi** e’tiborga olinsin.

3.Tuman hokimligida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining tuman bo‘linmasi **tarkibi 1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4.Jamoatchilik kengashi a’zolari asosiy **vazifalari 2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5.Tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi rahbari (Y.Tursunov**)ga:**

Jamoatchilik kengashi tuman bo‘linmasi bir oy muddatda va keyinchalik har yili 15-yanvargacha, amalga oshiriladigan tadbirlarning yillik dasturini tuman mudofaa ishlari bo‘limi hamda mos ravishda tuman hokimligi bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

6. Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i (D.Po‘latov**):**

Jamoatchilik kengashining tuman bo‘linmasi samarali faoliyat yuritishlari uchun hamda ularning zimmasiga yuklangan vazifalarni hal etishda har tomonlama ko‘maklashsin;

belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda Jamoatchilik kengashining tuman

bo‘linmasi bilan tegishli davlat organlari va tashkilotlari, harbiy qism (muassasa)lar qo‘mondonliklari o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta’minlasin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosarlari J.Safaraliyev, S.Usmonova, S.Nosirov va tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i Y.Tursunov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Tamikayev**

Zangiota tuman hokimining
2023 yil 28 apreldagi
82-10-138-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimligi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tuman bo‘linmasining

NAMUNAVIY TARKIBI

1. S.Usmonova - Tuman hokimi o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i ishchi guruh rahbari

2. A.Raxmatillayev - Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i

3. J.Safaraliyev - tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i

4.A.Eshonqulov - Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i

5. Z.G‘ulomova - Tuman madaniyat bo‘limi boshlig‘i

6. K.Raximov - Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i

7. N.Xalxadjayeva - Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri

8. T.Xoliqov - O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining tuman Kengashi raisi

9.Sh.Bobojonov - Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi tuman bo‘limi rahbari

10. D.Toshkenboyeva - tuman hokimining axborot masalalari bo‘yicha

maslaxatchisi

11.T.Xoliqov - O‘zbekiston “Mahalla xayriya jamoat fondi tuman bo‘limi boshqaruv raisi

12. T.Xoliqov - tuman “Nuroniy” jamg‘armasi raisi, tuman hokimining Keksalar masalalari bo‘yicha maslahatchisi

13. D.Po‘latov - Tuman Mudofaa ishlari bo‘yicha Kengash raisi, mas’ul kotib

Zangiota tuman hokimining
2023 yil 28 apreldagi
82-10-138-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Tuman hokimligi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining hududiy bo‘linmasi a’zolaring asosiy vazifalari:

1)Mudofaa va harbiy sohada olib borilayotgan islohotlar, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq eng dolzarb masalalarga oid jamoatchilik hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan bildirilgan takliflarni, fikr-mulohazalarni har tomonlama tahlil qilib borish, ijtimoiy so‘rovnomalarni, jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazish;

2)davlat organlarining nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta’minlash uchun Mudofaa vazirligini fuqarolar bilan bog‘lab turuvchi "ko‘prik" vazifasini bajarish;

3)harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish, uy-joy, tibbiy hamda boshqa ta’minot turlari bilan ta’minlash, xizmat o‘tash shart-sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tegishli dasturlarning bajarilishini kompleks tahlil qilishda ishtirok etish, ushbu dasturlarning amalga oshirilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

4)harbiy xizmatdan rezerv (zaxira)ga bo‘shatilgan fuqarolarning ijtimoiy va professional moslashuvi hamda bandligi bilan bog‘liq masalalarni hal etishda bevosita ishtirok etish;

5)mudofaa va harbiy qurilish, shu jumladan tuman mudofaa ishlari bo‘limi faoliyatiga oid normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarini (davlat sirlariga oid, foydalanish doirasi cheklangan hujjatlar va ma’lumotlar bundan mustasno) ishlab chiqish, ularning jamoatchilik va ekspert-mutaxassislar muhokamasidan o‘tkazilishini tashkil etishda tuman mudofaa ishlari bo‘limiga yaqindan yordam ko‘rsatish;

6)fuqarolarni muddatli harbiy va muqobil xizmatga chiqarish safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olish tadbirlarini tashkil etish, shuningdek, harbiy qism (muassasa)larda sog‘lom ma’naviy-ruhiy hamda yuksak axloqiy va madaniy muhit, qonuniylik, huquq-targ‘ibot, yuksak axloq va madaniyat saqlanishini ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan

takliflar tayyorlash va tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig‘iga kiritish;

7)yoshlarning faol hayotiy pozitsiyasi, Ona Vatanga sadoqat, uning taqdiri va ravnaqi uchun daxldorlik hissini kuchaytirish, ommaviy madaniyat, axborot-psixologik hurujlarga qarshi milliy mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda davlat va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

8)davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla institutlari, ta’lim tashkilotlarining yoshlarni vatanparvarlik, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, o‘z fuqarolik burchi va majburiyatlarini vijdonan bajaradigan, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga qodir barkamol shaxs etib tarbiyalash borasidagi aniq maqsadli ishlarni muvofiqlashtirib borishda ishtirok etish;

9)tuman mudofaa ishlari bo‘limi (harbiy qism (muassasa)lar qo‘mondonliklari), jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan birgalikda chaqiruvga qadar yoshlar va harbiy xizmatchilarning tarbiyaviy va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarligini tashkil etish;

10)yoshlarda va harbiy xizmatchilarning milliy g‘ururni mustahkamlash, ularda faol hayotiy pozitsiyani, Vatan mustaqilligi va xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsiy mas’uliyat hissini mustahkamlash;

11)tuman bo‘linmasining faoliyatini tahlil qilgan holda, har bir a’zoning ish samaradorligini baholab, kelgusida ularni faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

12)tuman bo‘linmasi faoliyatini harbiy qismlarning (muassasalarning) joylardagi davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, ta’lim tashkilotlari bilan uzviy hamkorligini ta’minlashga yo'naltirish;

13)fan, madaniyat va san’at namoyandalari hamda tuman mudofaa ishlari bo‘limi faxriylari ishlari bo‘yicha kengashlarni jalb etgan holda o‘quv-tarbiyaviy, targ‘ibot-tashviqot, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy-amaliy tadbirlarni o‘tkazishda harbiy qism (muassasa)larga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;

14)mahalliy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakat xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va chegaralar daxlsizligini ta’minlash masalalariga doir materiallarni e’lon qilish orqali samarali tushuntirish va targ‘ibot ishlarini tizimli asosda amalga oshirish.